

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA STATISTIK TADQIQOTLAR  
INSTITUTI**

**HOMIDOV HAMDAM HASAN O‘G‘LI**

**ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIDA RAQAMLI  
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH JARAYONLARI TADQIQI  
(Agrar sektor korxonolari misolida)**

**08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Homidov Hamdam Hasan o‘g‘li**

Ishlab chiqarish faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonlari tadqiqi (Agrar sektor korxonalari misolida)..... 3

**Хомидов Хамдам Хасан угли**

Исследование процессов использования цифровых технологий в производственной деятельности (на примере предприятий аграрного сектора)..... 29

**Khomidov Khamdam Khasan ugli**

Ensuring economic security of regions based on industrial production development..... 55

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 63

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA STATISTIK TADQIQOTLAR  
INSTITUTI**

**HOMIDOV HAMDAM HASAN O‘G‘LI**

**ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIDA RAQAMLI  
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH JARAYONLARI TADQIQI  
(Agrar sektor korxonolari misolida)**

**08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B2022.2.PhD/Iqt2338 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash  
veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, akademik

**Rasmiy opponentlar:**

**Mo'minov Bahodir Boltayevich**  
texnika fanlari doktori, professor;

**Murtazayev Olim Jumabekmurodovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**Yetakchi tashkilot:**

**"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini  
mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy  
tadqiqot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar  
beruvchi DSc.03/30.07.2022.I.16.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "21" 09 soat  
14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.  
Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish  
mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov  
ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "06" 09 kuni tarqatildi.  
(2024-yil "06" 09 dagi № 08 raqamli reyestr bayonnomasi).



**K.A. Sharipov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, texnika fanlari doktori, professor

**J.S. Fayzullayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**T.S. Qo'chqorov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida ishlab chiqarish faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish, uning asosiy bosqich va jarayonlariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada agrar sektor korxonalarini ham muhim o'rin tutib, aqlli qishloq xo'jaligini yo'lga qo'yish orqali samaradorligini oshirish ahamiyatli yo'nalishlardan hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, "aqlli qishloq xo'jaligi, jumladan, sun'iy intellekt va mashinalarni o'rganishga sarflanadigan global xarajatlar 2025-yilga borib 3 barobarga oshib, 15,3 milliard AQSH dollariga yetishi, shu bilan birga, qishloq xo'jaligida sun'iy intellekt texnologiyalariga sarflanadigan xarajatlar 2021-yildagi 1 mlrd. AQSH dollaridan 2026-yilga kelib 4 mlrd. AQSH dollariga yetishi"<sup>1</sup> prognoz qilinmoqda. Ushbu jarayonda esa, jahon miqyosida hozirgi vaqtda sun'iy intellektni qo'llash bilan bog'liq texnologiyalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga tobora ko'proq kiritilmoqda va uni qo'llashning yangi yo'nalishlarini ilmiy tadqiqotlar asosida aniqlash zarurati paydo bo'lmoqda.

Jahon miqyosida global raqobatning kuchayib borishi sharoitida ishlab chiqarish faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonlari tadqiqiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Aqlli qishloq xo'jaligi konsepsiyasining ilmiy-uslubiy asoslarini kengaytirish, fermer xo'jaliklarida suv, o'g'it va pestitsidlar kabi resurslardan foydalanishni optimallashtirish, datchiklar, dronlar va sun'iy yo'ldoshlardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish usullarini takomillashtirish, ekinlar monitoringi, ularning salomatligi va o'sishini kuzatish uchun dronlar yoki sun'iy yo'ldoshlardan olingan tasvirlarni tahlil qilishda yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish, zararkunandalar va kasalliklarni aniqlash, ularning tarqalishini bashorat qilish va oldini olish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish, qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari orqali fermer xo'jaligi ma'lumotlari asosida dehqonchilik amaliyotini optimallashtirish masalalari bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 2023-yildagi ijrosi doirasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda<sup>2</sup>. Raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali qishloq xo'jaligi faoliyati samaradorligini oshirish, xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish asosida ularda foydalanilayotgan aqlli texnologiyalarni qo'llash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan ham, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-sonli qarorida belgilangan "...yerni masofadan zondlash ma'lumotlari asosida tuproq va qishloq xo'jaligi ekinlari holatini, shuningdek, qishloq xo'jaligi texnikasi, shu jumladan kombaynlar ishini monitoring

<sup>1</sup> <https://www.fao.org/e-agriculture/>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-27-sonli Farmoni.

qilish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash"<sup>3</sup> borasidagi vazifalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 26-avgustdagi PQ-5234-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-dekabrda 794-son "O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo'jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 26-fevraldagi 104-son "Qishloq xo'jaligi sohasida statistik ma'lumotlar bazasini kengaytirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Chet el olimlaridan J.W. Jones, J.M. Antle, B. Basso, K.J. Boote, R.T. Conant, I. Foster, H.C. Godfray va boshqalar qishloq xo'jaligi tizimlari modellarining imkoniyatlari va cheklovlariga e'tibor qaratib, qishloq xo'jaligi tizimlari modellaridan foydalanish holatlari uchun zarur bo'lgan xususiyatlarini, ularning barchasida cheklovlar borligini va ularni yaxshilash kerakligini aniqlashgan<sup>4</sup>. AKT sohasidagi yetakchi xorijiy olimlardan P. Drukker, M. Banderman, E.J. Vaughan, A.V. Shiyer, U.M. Fayyad va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida AKTdan foydalanish muammolari, iqtisodiy axborot tizimlarini loyihalash va ishlab chiqish hamda boshqaruv tizimiga samarali tatbiq etish masalalari yoritib berilgan<sup>5</sup>.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida iqtisodiyotning soha va tarmoqlari uchun axborot tizimlarini ishlab chiqishning fundamental asoslari, axborot tizimlarini loyihalash va ishlab chiqishning metodologik jihatlari, qarorlar qabul qilishda axborot resurslari, raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalaridan

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4996-sonli qarori. <https://lex.uz/ru/docs/5297046>

<sup>4</sup> Jones J.W., Antle J.M., Basso B., Boote K.J., Conant R.T., Foster I., Godfray H.C. Toward a new generation of agricultural system data, models, and knowledge products: State of agricultural systems science, National library of medicine 2017 Jul; 155: 269–288.

<sup>5</sup> Drucker, P., Innovation and entrepreneurship. Routledge.Oxford, 2014; Bandermann M. Information technology in Europe: The EC Communication's View It European Information Technology Observatory 1994. – Mainz; Vaughan E.J. Fundamentals of Risk and Insurance. New York – John Willey and Sons, 2008.; Scheer A.W. Business Process Engineering: Reference Models for Industrial Enterprises. - 1995. Press. Menio Park, 1996; Fayyad U.M., Piatetsky-Shapiro G, Smyth P. From Data Mining to Knowledge Discovery: An Overview. Advances in Knowledge Discovery and Data Mining.

foydalanish bo'yicha uslubiy yondashuvlar A.P. Verevchenko, V.V. Gorchakov, I.V. Ivanov, V.V. Dik, G.A. Titorenko, A.N. Romanov, A.I. Doljenko, M.S. Klikova, E.S. Spiridonova va V.P. Kosarov kabi olimlar tadqiqotlarida o'rganilgan<sup>6</sup>. N.B. Bestayeva, Dj.K. Sultangaliyeva, A.D. Zubov va boshqalar qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan mavjud monitoring tizimlari, qishloq xo'jaligini sun'iy intellekt texnologiyalari orqali rivojlantirish, kichik o'lchamli ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda uchuvchisiz havo vositalari orqali qishloq xo'jaligi monitoringini tahlil qilishda Rossiya, Shimoliy Afrika, Yaponiya va Qozog'istonning qishloq xo'jaligi tizimlarida tajribalar o'tkazib, o'simliklarning holati, yong'inlar mavjudligi, yovvoyi tabiatning ko'rinishini kuzatish, hayvonlar va zararli hasharotlar, shu jumladan, zararkunandalarga qarshi kurashning asosiy usullarini tadqiq qilganlar<sup>7</sup>.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.F. Xurramov, Sh.D. Ergashxodjayeva, S.S. Gulyamov, B.T. Salimov, L.F. Amirov, A.M. Salimov, R.T. Gaziyeva, A.S. Qobildjanov, S.Y. Ismoilov, A.M. Qodirov, D.M. Avazxodjayeva va boshqalarning ilmiy izlanishlarida mamlakatda qishloq xo'jaligining rivojlanish tendensiyalari, uning o'ziga xos xususiyatlari, agrar sektor tarmoqlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, mevali bog'larda sug'orish jarayonini avtomatlashtirish tizimi, qishloq xo'jaligida mulkiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, agrar sohada raqamli texnologiyalardan foydalanish, qishloq xo'jaligida kooperatsiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga oid muammolar o'rganilgan<sup>8</sup>. A.N. Aripov, B.Y. Xodiyev, A.A. Musaliyev, R.X. Alimov, S.S. Gulomov, B.A. Begalov, A. Abdugaffarov,

<sup>6</sup> Verevchenko A.P., Gorchakov V.V., Ivanov I.V. i dr. Информационные ресурсы для принятия решений. – М.: Издательство: Академический проект - 2002. - 560с.; Дик В.В. Методология формирования решений в экономических системах и инструментальные среды их поддержки. - М.: Финансы и статистика, 2000,- 300с.; Титоренко Г.А. Информационные технологии управления: Учебное пособие для вузов. /Под ред. проф. Титоренко Г.А. 2-е изд., доп. –М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. - 439с.; Романов А.Н., Одинцов Б.Е. Информационные системы в экономике (лекции, упражнения, задачи): Учебное пособие. – М: Вузовский учебник, 2006. – 300 с.; Долженко А.И. Управление информационными системами: учеб. пособие. //А.И.Долженко. - Ростов-н/Д.: РГЭУ «РИНХ», 2008. - 197с.; Информатизация менеджмента: Учебник. /Под ред. М.С.Клыкова и Э.С. Спиридонова. М.: ЛКИ, 2008. 584с.; Косарев В.П., Левит Б.Ю., Шуремов Е.Л., Анненков А.П., Лёвочкина Г.А., Мамонтова Е.А. и др. Информационные системы в экономике. – М.: Финансы и статистика, Перспектива, 2004. – 160 с.

<sup>7</sup> Бестаева Н.В., Султангалиева Дж.К., Зубова А.Д. Исследование систем мониторинга в сельскохозяйственной сфере // Научный результат. Информационные технологии. – Т.3, №1, 2018.

<sup>8</sup> Xurramov A.F., Mamatov A.A. Qishloq xo'jaligida mulkiy munosabatlar va ularni rivojlantirish yo'nalishlari. - T.: 2008. 59 b; Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida agrosanoat majmuni boshqarish tizimini takomillashtirish. O'zbekistonda agrar iqtisodiy islohotlar: erishilgan yutuqlar va ularning yechimlari. – T.: 2006. - 39 b; Ergashxodjayeva Sh.D. Bozor raqobati sharoitida qishloq joylarda kooperatsiyani rivojlantirishning marketing strategiyasi. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2007. - 17 b; Gulyamov S.S. Qishloq xo'jaligi samaradorligini statistik tahlil qilishda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishdagi harakatlar // Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti: muammo va yechimlar mavzusidagi II -halqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – T.: 2022. - 640 b. 11-14 betlar.; Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Berkinov B.B., Hakimov R., Yusupov M.S., Oripov M.A., O'roqov N.I. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi (O'quv qo'llanma). – T.: TDIU, 2004. – 176 b; Amirov L.F. O'zbekiston iqtisodiyotining agrar sektori va uning asosiy tushunchalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №4, iyul-avgust, 2020-yil. [http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/Öles/maqolalar/23\\_Amirov\\_L.pdf](http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/Öles/maqolalar/23_Amirov_L.pdf); Salimov A.M., Mamurova Z.M. O'zbekiston agrosanoat majmuasi infratuzilmasining iqtisodiyotda tutgan o'rni va chet el davlatlari tajribalari. «Science and Education» ScientiÖc Journal Volume 1 Issue 2. 2020. <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/download/407/401/1009>; Gaziyeva R.T., Qobildjanov A.S., Ismoilov S.Y. Mevali bog'larda suv tejovchi sug'orish jarayonini boshqarishning intellektual tizimi, O'zbekistonda "Aqlli qishloq xo'jaligi" va "Qishloq xo'jaligi – 4.0" konsepsiyalarini amalga oshirish: muammo va yechimlar mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani, 2021y, 157-165 betlar.; Qodirov A.M., Toshmatov R.X. va b. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ratsional joylashtirish uchun tabiiy resurs salohiyatini aniqlash bo'yicha ilmiy – uslubiy yondashuv. Monografiya. – T.: LECCON PRESS, 2017, - 229 b.; Avazxodjaeva D.M. Развитие аграрного сектора экономики Узбекистана. Экономика и управление. Молодой ученый. № 17 (151), 2017. – С. 321 – 323. 13.

B.Berkinov, N.Maxmudov, R.A.Dadabayeva, D.M.Rasulev, A.T.Kenjabayev, A.M.Abduvoxidov, I.Ye.Jukovskaya, O.Q.Rixsimboyev, T.P.Jiyemuratov, A.Sh.Kudaybergenov, T.S.Kuchkarov, A.B.Bobojonov, O.S.Umarov, Sh.G'.Odilov, Sh.O'.Djanadilov, S.U.Umurzakov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida milliy iqtisodiyot tuzilmalari uchun axborot tizimlari va texnologiyalarini loyihalash, ishlab chiqish, axborot tizimlari menejmenti va ekonometrik tahlili, shuningdek, AKT va tizimlardan milliy iqtisodiyot tarmoq va sohalarining turli muammolarini hal etishda foydalanish, boshqaruv jarayonlari axborot ta'minotini tashkil etish hamda raqamli texnologiyalar asosida boshqaruv strategiyalarini takomillashtirishning nazariy va uslubiy jihatlari yoritib berilgan<sup>9</sup>.

Ushbu olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari qiymatini e'tirof etgan holda, qishloq xo'jaligi korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning moliyaviy, iqtisodiy va tashkiliy-boshqaruv jihatlari yanada ko'proq tadqiq qilish, raqamli qishloq xo'jaligiga o'tishga O'zbekiston agrosanoat kompleksini rivojlantirishning strategik maqsadlaridan biri sifatida qarash, O'zbekiston qishloq xo'jaligi korxonalarining rivojlanishida muayyan texnologiyalarni iqtisodiy jihatdan oqilona tanlash, raqamlashtirishga yordam beradigan statistik munosabatlarni shakllantirish bilan bog'liq masalalarni kengroq tadqiq etish, qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish zarurati tadqiqot mavzusining ilmiy va amaliy dolzarbligini ko'rsatadi.

**Dissertatsiya mavzusining tadqiqot olib borilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Ushbu dissertatsiya tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi qoshidagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Qishloq xo'jaligi sohasida raqamlashtirish ishlarini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar" ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** agrar sektor korxonalarini ishlab chiqarish faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

agrar sektor korxonalarini ishlab chiqarish faoliyatini tahlil qilishda raqamli texnologiyalarni qo'llashning nazariy asoslarini o'rganish;

---

<sup>9</sup> Aripov A.N. Axborot-kommunikatsiyalar sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish muammolari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - T.: 2004. - 24 b.; Ходиев Б.Ю., Мусалиев А.А., Бегалов Б.А. Менеджмент информационных систем. - Т.: ФАН, 2007, - 300 с.; Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik // Mualliflar jamoasi: S.S. G'ulomovning umumiy tahriri ostida. - T.: Shark, 2000.; G'ulomov S.S., Begalov B.A. Informatika va axborot texnologiyalari. Darslik. - T.: Fan, 2010 y. - 685 b.; Rasulev D.M. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bosqichida investitsiyani moliyalashtirishni ekonometrik modellash. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. - T.: 2003. 243 b.; Kenjabayev A.T. Tadbirkorlik faoliyatida axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - T.: 2005. 32 b.; Бегалов Б.А., Жуковская И.Е. Методологические аспекты влияния информационного общества на инновационное развитие экономики. Монография. - Ташкент: Фан ва технологиялар. 2016. - 134 с.; Дадабаева Р.А. Менеджмент информационных систем. Учебное пособие. - Т.: Иқтисодиёт, 2016. С. 391.



O‘zbekiston agrar sektor korxonalarini ishlab chiqarish faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning uslubiy asoslarini yoritish;

agrar sektor korxonalarini ishlab chiqarish faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha xorij tajribasini o‘rganish;

Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari faoliyatida raqamli texnologiyalar, jumladan dron texnologiyalarini joriy etish yo‘llarini bayon etish;

agrar sektor korxonalarini ishlab chiqarish faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish;

dron texnologiyalari asosida to‘plangan fermer xo‘jaliklarining panel ma‘lumotlarini ekonometrik modellashtirish;

agrar sektor korxonalarini ishlab chiqarish faoliyatida yagona raqamli platformalarni amaliy tatbiq etish yo‘nalishlarini asoslash;

agrar sektor korxonalarini ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish istiqbollari belgilash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Toshkent viloyatida faoliyat yurituvchi fermer xo‘jaliklari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** agrar sektor korxonalarini ishlab chiqarish faoliyatida raqamli texnologiyalar, jumladan dron texnologiyalarini samarali qo‘llash bilan bog‘liq tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tizimli yondashuv, iqtisodiy taqqoslash, statistik tahlil, kuzatuv va qiyosiy tahlil, iqtisodiy baholash, korrelyatsion tahlil, umumlashtirilgan eng kichik kvadratlar usuli (Pooled OLS), ko‘p omilli ekonometrik modellar, o‘zgarmas samara modeli (Fixed effects model), tasodifiy samara modeli (Random effects model) usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “qishloq xo‘jaligi korxonalarining jadal rivojlanishi uchun raqamli texnologiyalar ustuvorligini ta‘minlashning strategik ustuvor yo‘nalishlarini tanlash” tushunchasining iqtisodiy mazmuni noaniq to‘plamlar nazariyasi usullaridan foydalangan holda dron texnologiyalarini qo‘llash istiqbollari ekspert baholash asosida metodik jihatdan takomillashtirilgan;

raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi mintaqaviy agentlikni tashkil etish asosida agrar sektor korxonalarini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni takomillashtirish taklifi asoslangan;

agrar sektor korxonalarini uchun raqamli platforma modelini ishlab chiqish asosida iqtisodiy faoliyat to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qayta ishlash va natijalarni taqdim etish orqali raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish taklifi asoslangan;

Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklarida dron texnologiyalari orqali to‘plangan panel ma‘lumotlari negizida qurilgan ko‘p omilli ekonometrik model asosida yagona raqamli platformalarni amaliy tatbiq etishning 2027 yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish hamda fermer xo‘jaliklari faoliyatini statistik tahlil qilishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish yuzasidan uslubiy

yondashuv taklif etilgan;

dron texnologiyalaridan foydalanib fermer xo‘jaliklari faoliyatidan olingan ma‘lumotlar asosida panel-data tuzilgan, ko‘p omilli ekonometrik modellar ishlab chiqilib, ularning qiyosiy tahlillari bayon etilgan;

Piskent tumani fermer xo‘jaliklarining ma‘lumotlarini tahlil qilishda yagona raqamli platformalarni amaliy tatbiq etish yo‘nalishlari asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Qo‘llanilgan usullarning maqsadga muvofiqligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalarining amalda sinovdan o‘tganligi, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ishlab chiqilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, dron texnologiyalari asosida to‘plangan fermer xo‘jaliklari panel ma‘lumotlarining ekonometrik modellari, olingan natijalarning tadqiqot obyekti tomonidan aprobatatsiyadan o‘tganligi va tasdiqlanganligi hamda Piskent tumani fermer xo‘jaliklarining ma‘lumotlari tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada asoslangan nazariy, uslubiy va amaliy tavsiyalar hamda ishlanmalar qishloq xo‘jaligi samaradorligini statistik tahlil qilish va boshqaruv jarayonlariga sun‘iy intellekt hamda dron texnologiyalarini joriy etishda, shuningdek, yerlardagi tuproqning unumdorligi, g‘alla maydonlari, bog‘dorchilikda mavjud turli xil kasalliklar, zararkunanda hashoratlarni aniqlab, ular to‘g‘risida ma‘lumotlar bazasi yaratish hamda ekinlarning bir xilda rivojlanishi va agrotexnik ishlarda yo‘l qo‘yiladigan chetlanish va buzilishlarning oldini olish maqsadida ma‘lumotlarni qayta ishlash va natijalarni taqdim etishda asosiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ishida Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari faoliyatida raqamli hamda dron texnologiyalarini joriy etish yuzasidan olingan natijalardan qishloq xo‘jaligi sohasida yagona raqamli platformalarni amaliy tatbiq etish yo‘nalishlarini asoslash bilan bog‘liq axborot jarayonlarida keng va samarali joriy etishni takomillashtirishda hamda «Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar», «Raqamli iqtisodiyot», «Sun‘iy intellekt» va «Axborot tizimlari» fanlari bo‘yicha keys-stadilar, o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Agrar sektor korxonalarini ishlab chiqarish faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “qishloq xo‘jaligi korxonalarining jadal rivojlanishi uchun raqamli texnologiyalar ustuvorligini ta‘minlashning strategik ustuvor yo‘nalishlarini tanlash” tushunchasining iqtisodiy mazmunini noaniq to‘plamlar nazariyasi usullaridan foydalangan holda dron texnologiyalarini qo‘llash istiqbollari ekspert baholash asosida metodik jihatdan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Raqamli biznes modellar” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023 yil 26-oktyabrdagi 340-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda noaniq to‘plamlar nazariyasi usullaridan foydalangan holda dron texnologiyalarini qo‘llash

istiqbollarini ekspert baholash asosida metodik jihatdan takomillashtirilgan qishloq xo'jaligi korxonalarining jadal rivojlanishi uchun raqamli texnologiyalar ustuvorligini ta'minlashning strategik ustuvor yo'nalishlarini tanlash tushunchasining iqtisodiy mazmuni bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi mintaqaviy agentlikni tashkil etish asosida agrar sektor korxonalarini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 20-apreldagi 05/01-05/02-05/04-04-163-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida fermer xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi moliyaviy texnologiyalarning operatsion samaradorligini 7 foizga oshirishga erishilgan;

agrar sektor korxonalarini uchun raqamli platforma modelini ishlab chiqish asosida iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta ishlash va natijalarni taqdim etish orqali raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish taklifi Toshkent viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi Piskent tuman qishloq xo'jaligi bo'limi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 20-apreldagi 05/01-05/02-05/04-04 163-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tahlil ma'lumotlar sifatini 10-12 foizga ortishiga erishilgan;

Toshkent viloyati fermer xo'jaliklarida dron texnologiyalari orqali to'plangan panel ma'lumotlari negizida qurilgan ko'p omilli ekonometrik model asosida yagona raqamli platformalarni amaliy tatbiq etishning 2027 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 20-apreldagi 05/01-05/02-05/04-04-163-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Toshkent viloyati fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonlarining uzoq muddatli istiqboldagi asosiy parametrlarini aniqlashtirish hamda o'zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 8 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ma'qullangan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, mahalliy jurnallarda 5 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 4 ta maqola, shuningdek, xalqaro va mahalliy ilmiy-amaliy konferensiyalarda 6 ta ma'ruza va tezislari nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 152 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Qishloq xo‘jaligi faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida qishloq xo‘jaligi faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonlarining tadqiqi, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning uslubiy asoslari hamda sun‘iy intellekt texnologiyalaridan qishloq xo‘jaligi faoliyatida foydalanish bo‘yicha xorij tajribasi yoritilgan. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining jadal rivojlanishi uchun raqamli texnologiyalarni birinchi o‘ringa qo‘yishning strategik ustuvor yo‘nalishlarini tanlashga metodik yondashuvga to‘xtalib o‘tilgan.

Tahlillarga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchi mavsum davomida 40 dan ortiq turli yechimlarni qabul qilishiga to‘g‘ri keladi. Ularning aksariyati raqamlashtirish obyekti hisoblanib, bevosita ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, ekish, yetishtirish, saqlash va tashish jarayonida hosilning 33 %i yo‘qotilmoqda. Shunday bir sharoitda mavjud yer, suv, moddiy-texnika va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni ta‘minlovchi “smart” yoki “aqlli qishloq xo‘jaligi” texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi<sup>10</sup>.


Raqamli texnologiyalar bilan bir qatorda tahliliy ma‘lumotlarga kirishning yaxshilanishi dunyodagi 570 million fermer xo‘jaligini 8 milliard iste‘molchi bilan bog‘lab, tengsizlik va global ochlikni kamaytirishga yordam beradi<sup>11</sup>. Aytish lozimki, hozirda Rossiya bozorida sensorlar yordamida to‘plangan ma‘lumotlarni aqlli qayta ishlashga qodir bo‘lgan IoT platformasida ixtisoslashtirilgan dasturiy ta‘minotni joylashtirish xizmatlarini taklif qiluvchi kompaniyalar paydo bo‘lmoqda (1-rasm). Bunday xizmatlarni taqdim etadigan mahalliy kompaniyalar orasida *Rightech* va *kSense* kabilar bor.

Ushbu dalillarni hisobga olgan holda, Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklarida aniq dehqonchilik loyihalarida foydalanish uchun UUA dan foydalanishning sxematik ko‘rinishi keltirilgan bo‘lib, u quyidagi rasmda aks ettirilgan (2-rasm).

Bundan tashqari, bugungi kunda ko‘plab qishloq xo‘jaligi tarmoqlari samaradorlik va hosildorlikni oshirish, vaqt va xarajatlarni tejash uchun aqlli dehqonchilikni amalga oshirish maqsadida IoT texnologiyasini qo‘llashga kirishdi. Texnologiyalarning rivojlanishi datchiklarning kichrayishi, sensorli qurilmalarga o‘tishi hamda masofaviy tizimning murakkablashishi vaqtning tejashiga olib keladi.

<sup>10</sup> <https://yuz.uz/uz/news/aqlli-qishloq-xojaligi>

<sup>11</sup> <https://dialogue-irk.ru/uz/onlajjn-servisy/cifrovoy-peredel-preimushchestva-i-riski-cifrovizacii-selskogo/>




**1-rasm. Aqlli qishloq xo‘jaligida IoT platformasi<sup>12</sup>**

Dissertatsiyaning “Qishloq xo‘jaligi faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning uslubiy asoslari” deb nomlangan ikkinchi bobida Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish tendensiyalari, raqamli texnologiyalardan fermer xo‘jaliklari faoliyatida samarali foydalanish usullari hamda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida raqamli texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish masalalari yoritilgan. Fermer xo‘jaliklarini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish mexanizmi ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning tashkiliy modeliga “raqamli texnologiyalardan jamoaviy foydalanish shakllari”, “raqamli yechimlarni iste‘molchilarga yetkazib berishning yangi shakllari” “professional texnik, texnologik yordam ko‘rsatuvchi tashkilotlar”, “Agrotexnologik park”, “ilmiy va o‘quv markazlari” hamda “raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi tashkilot (mintaqaviy agentlik)” ishtirokchilarini kiritish taklifiga to‘xtalib o‘tilgan.

Shuni qayd etish kerakki, tadqiqotimiz obyekti hisoblangan Toshkent viloyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydagi “Yerdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish nazoratini kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlarini yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5065-sonli Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-martdagi “Qishloq xo‘jaligi ekinlarini monitoring qilish, hududni kartografiyalashda texnik va texnologik ishlab chiqishni rivojlantirish va yangilashni amalga oshirish to‘g‘risida”gi 258-F-sonli farmoyishiga asoslangan holda

<sup>12</sup> Manba: *gsmaintelligence.com* ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tizilgan.

O‘zbekiston hududida rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan zamonaviy UUA dan foydalanish amalga oshirilmoqda<sup>13</sup>.



**2-rasm. Mintaqalardagi aniq hisob-kitoblarga asoslangan dehqonchilik loyihalarida uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish sxemasi<sup>14</sup>**

Shuni qayd etish kerakki, tadqiqotimiz obyekti hisoblangan Toshkent viloyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydagi “Yerdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish nazoratini kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlarini yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5065-sonli Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-martdagi “Qishloq xo‘jaligi ekinlarini monitoring qilish, hududni kartografiyalashda texnik va texnologik ishlab chiqishni rivojlantirish va yangilashni amalga oshirish to‘g‘risida”gi 258-F-sonli farmoyishiga asoslangan holda O‘zbekiston hududida rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan zamonaviy UUA dan foydalanish amalga oshirilmoqda<sup>15</sup>.

Sensordan foydalanish mazkur jarayonlarni yaxshilashga yordam berishini ta’kidlab o‘tish lozim (3-rasm).

Simsiz sensordan olingan ma’lumotlarning tahlili kasalliklarni bashorat qilish tizimlarining imkoniyatlarini kengaytiradi.


Soha mutaxassislari tomonidan boshqaruv qarorlarini qabul qilish bo‘yicha asosli tavsiyalarni ishlab chiqishda axborotlarni qayta ishlashning zamonaviy usullari ishlab

<sup>13</sup> Мажитов Б. Ўзбекистонда қишлоқ хўжалиги ер майдонлари мониторингини ўтказишда учувчисиз учиш аппаратларини қўллаш. //SCIENTIFIC PROGRESS. VOLUME 3 | ISSUE 2 | 2022. ISSN: 2181-1601. [www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz). 323-329 б.

<sup>14</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

<sup>15</sup> Мажитов Б. Ўзбекистонда қишлоқ хўжалиги ер майдонлари мониторингини ўтказишда учувчисиз учиш аппаратларини қўллаш. //SCIENTIFIC PROGRESS. VOLUME 3 | ISSUE 2 | 2022. ISSN: 2181-1601. [www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz). 323-329 б.

chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi ko'plab omillarni tahlil qilishga, ularni real vaqt rejimida ma'lumotlarni qayta ishlovchi turli intellektual ilovalar bilan integratsiyalashga asoslangan.



**3-rasm. Ekinlarning sog'lom o'sishini ta'minlash va pitomniklarda yo'qotishlarni kamaytirish<sup>16</sup>**

Raqamli rejalashtirish bilimlarning cheklanishi, faoliyat motivatsiyasining pasayishi va ishlab chiqarishni boshqarish natijalariga mutaxassislarining javobgarligi bilan bog'liq inson omilining salbiy ta'sirini bartaraf etishga mo'ljallangan boshqaruv tizimini oqilona qurishni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, matematik modellar to'plamiga asoslangan qishloq xo'jaligida texnologik jarayonlarni boshqarishda samarali qarorlarni qabul qilishni qo'llab-quvvatlash uchun integratsiyaga ega avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan (AAT) foydalanish maqsadga muvofiq (4-rasm).


Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini avtomatlashtirish hamda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishning uzoq zanjirida doimiy ravishda yuzaga keladigan ko'plab muammolarni hal qilish imkonini berib, ularning hal qilinishi qabul qilingan va qayta ishlangan ma'lumotlar hajmining sezilarli darajada oshishi, ishlab chiqarish hajmining o'sishi bilan bog'liqdir.

Shu sababli fermer xo'jaliklarini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish mexanizmi ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning quyidagi tashkiliy modeli taklif etilmoqda (5-rasm).

Ishlab chiqilgan model raqamli texnologiyalarni joriy etishning asosiy ishtirokchilari o'rtasida uzoq muddatli o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, o'zaro hamkorlikning tashkiliy modeliga bir nechta

<sup>16</sup> Manba: Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

yangi ishtirokchilarni kiritish taklif etiladi (5-rasmda qalin harflar bilan belgilab ko`rsatilgan):



**4-rasm. Integratsiyalashgan AAT boshqaruvini qo‘llab-quvvatlash modeli<sup>17</sup>**

Fermer xo‘jaliklari tomonidan raqamli texnologiyalardan jamoaviy foydalanishni ta‘minlovchi institutlar. Ularni yaratish g‘oyasi, ayniqsa, eng samarali raqamli texnologiyalar ko‘plab korxonalar bo‘ylab tarqatilganligi hisobga olinsa, bir qator fermer xo‘jaliklari tomonidan apparat va dasturiy mahsulotlardan jamoaviy foydalanish imkoniyatidan iborat.


Raqamli texnologiyalarni yetkazib beruvchilar faoliyatining innovatsion shakllari, xususan, fermer xo‘jaliklarining ehtiyojlarini qondiruvchi raqamli texnologiyalar majmuasini kompleks taklif qilishni ta‘minlash uchun ilmiy va ta‘lim tashkilotlari bilan hamkorlik qilish.

Taklif etilayotgan model quyidagi bir qator yangi elementlar va o‘zaro ta’sirlar bilan ajralib turadi:

<sup>17</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.



fermer xo'jaliklarining raqamli texnologiyalardan foydalanishi hamda ularni sinovdan o'tkazish va ekin yetishtirishning raqamli texnologiyalarini ko'paytirishni ta'minlash markazi sifatida viloyat agrotexnologik parkini yaratish taklif etiladi;



## **5-rasm. Fermer xo‘jaliklarini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish mexanizmi ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning tashkiliy modeli<sup>18</sup>**

raqamli texnologiyalarni yetkazib beruvchilarining integratsiyasi, qo‘shma ishlanmalar va yechimlar taklifi sifatida raqamli texnologiyalarni joriy etish va qo‘llash bo‘yicha sanoat uchun yangicha jamoaviy o‘zaro aloqalardan foydalanish ko‘zda tutilgan;

akademik hamkorlikning roli sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda, kadrlar tayyorlash va o‘z tadqiqot hamda ishlanmalarimiz natijalarini ishlab chiqarishga joriy etishning an’anaviy funksiyalariga qo‘shimcha ravishda, mintaqa sharoitlariga katta hajmdagi ma’lum texnologik yechimlarni moslashtirishni qo‘shish taklif etiladi. Shuningdek, xalqaro yetkazib beruvchilar, yangi ishlanmalar va ularni tatbiq etish o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldiruvchi texnologik tadbirkorlik firmalari sektorini shakllantirish lozim.

Tadqiqotimiz davomida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish uchun tashkiliy modellarni tanlash algoritmi ishlab chiqilib, bu mantiqda oddiydan murakkabga o‘tish imkonini beradi (6-rasm).

Shunday qilib, fermer xo‘jaliklarining xususiy tashabbusi bilan cheklanib qolmasdan, imkoniyatlarni baholash va raqamlashtirish bo‘yicha istiqbolli loyihalarni ishlab chiqishda agrobiznes subyektlarini yanada kengroq jalb etishni boshlash zarur.

Dissertatsiyaning **“Qishloq xo‘jaligi faolyati tahlilida raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish yo‘llari”** deb nomlangan uchinchi bobida qishloq xo‘jaligi sohasida yagona raqamli platformalarni amaliy tatbiq etish yo‘nalishlari, dron texnologiyalari asosida to‘plangan fermer xo‘jaliklarining panel ma’lumotlarini ekonometrik modellashtirish hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish istiqbollari yoritilgan. Ma’lumotlarni qayta ishlash va natijalarni taqdim etish tizimi Veb ilovasi, uch sathli umumiy funksiyalarni taqsimlashning tizim arxitekturasi va tizim ishlashining umumlashgan algoritmi asosida “qishloq xo‘jaligi uchun raqamli platforma modeli”ni ishlab chiqishga to‘xtalib o‘tilgan.

Shunga muvofiq, tashkiliy va dasturiy ta’minot, axborot va apparat ta’minoti nuqtai nazaridan mavjud to‘siqlar orasida quyidagilarni ta’kidlash mumkin<sup>19</sup>:

tizim komponentlari va uskunalar bazasining import o‘rnini bosish zarurati;

turli dasturiy ta’minot agentlari va tarkibiy bo‘linmalar o‘rtasida yagona dasturiy platforma va almashish protokolidan foydalanish zarurati;


mintaqaviy, mahalliy darajada va alohida qishloq xo‘jaligi korxonalarida raqamlashtirish bo‘yicha tadbirlar uchun kadrlar yetarli emasligi;

hududlarning keng ko‘lamlilik va tuproq-iqlim zonalarining xilma-xilligi tufayli viloyat hududida barqaror navigatsiya va uyali aloqa signalini ta’minlash zarurati.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun korxonani raqamlashtirish darajasini oshiradigan tizimni ishlab chiqish kerak. Tizim raqamli platforma yaratishni anglatib, uning mohiyati korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish uchun agrosanoat majmuasiga raqamli texnologiyalarni joriy etishdan iborat.

<sup>18</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

<sup>19</sup> Вартанова М.Л., Дробот Е.В. Перспективы цифровизации сельского хозяйства как приоритетного направления импортозамещения // Экономические отношения. – 2018. – № 1. – с. 1-18. – doi: 10.18334/eo.8.1.38881.



**6-rasm. Raqamlashtirish loyihalarini amalga oshirish uchun tashkiliy modellarni tanlash mexanizmi<sup>20</sup>**


Ushbu muammolarni hal qilish uchun korxonani raqamlashtirish darajasini oshiradigan tizimni ishlab chiqish kerak. Tizim raqamli platforma yaratishni anglatib, uning mohiyati korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish uchun agrosanoat majmuasiga raqamli texnologiyalarni joriy etishdan iborat.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, qishloq xo'jaligi uchun keng imkoniyatli raqamli onlayn platformaning tuzilmaviy sxemasini taklif etamiz (7-rasm).

